

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026-yil yanvar-may

- I. Sanoat ishlab chiqarishi
- II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- III. Bajarilgan qurilish ishlari
- IV. Chakana savdo tovar aylanmasi
- V. Tashqi savdo aylanmasi
- VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- VII. Korxona va tashkilotlar soni



I. Sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalari tomonidan **505 933,2** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,9 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **86,2 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **6,9 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,4 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu – ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **3,7 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **6,3 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **7,7 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish hajmining oshishi (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **1,9 b.**), shuningdek, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish (**1,7 b.**) sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,6 %**) hamda metallurgiya sanoati korxonalarida (**98,3 %**) hajmlarning pasayishi kuzatildi.



II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026-yil yanvar-may oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **2,7 %** ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **3,9 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **1,61** foiz punkt (f.p.) ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda **1,5 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichga **0,49** f.p. ta'sir qilgan, xizmatlar esa **2,3 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni **0,6** f.p. oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

2025-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **142,5 %** ni (Sug'urta va moliyaviy xizmatlar), quyi chegarasi esa **100,4 %** ni (Ta'lim sohasidagi xizmatlar) tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-may oylarida yig'ma iste'mol narxlari indeksining o'sishiga "Oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar" bo'limidagi narx o'zgarishlari eng katta hissa qo'shdi – **1,53** f.p. yoki umumiy ta'sirning **56,7** foizi. "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar", "Uy-joy xizmatlari, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa yoqilg'i turlari", "Transport", "Kiyimlar va poyabzallar" bo'limlarida narxlarning o'sishi umumiy ko'rsatkichga **0,66** f.p. qo'shimcha ta'sir ko'rsatdi. Boshqa bo'limlarning jami ta'siri **0,51** f.p. ni tashkil etdi.



III. Bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-may oylarida **104 943,7** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **27 399,8** mlrd so'mi yoki **26,1 %** yirik korxona va tashkilotlar tomonidan, **50 847,5** mlrd so'mi yoki **48,5 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **26 696,4** mlrd so'mi yoki **25,4 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



IV. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **210 243,1** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,7 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **25,6 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **18,5 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-may oyiga nisbatan **18,0 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **68,2 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **13,3 %** ulush bilan **27 975,7** mlrd so'mni tashkil etdi.



V. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-may oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **32 765,5** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1 157,5** mln AQSh dollariga yoki **3,7 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **12 638,1** mln AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,5 %** ga tushdi. Import **20 127,4** mln AQSh dollariga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,8 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **63,7 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **15,1 %**, har xil tayyor mahsulotlar – **8,4 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **8,3 %** va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **8,0 %** bo'ldi.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**33,1 %**), sanoat tovarlari (**15,3 %**), shuningdek, kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**12,3 %**) tashkil etdi.



VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026-yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **533 079,2** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,5 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga asosiy omil savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining **14,0 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri – **3,8 f.p.**), moliyaviy xizmatlarning **24,9 %** ga (o'sishdagi ta'siri **3,7 f.p.**), transport xizmatlarining **13,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,2 f.p.**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning **14,1 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,4 f.p.**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **22,2 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,5 f.p.**) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo sohasida ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri keldi (**141 660,3** mlrd so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati – **114,0 %**), shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (**90 748,6** mlrd so'm, yoki **114,1 %**), transport xizmatlari (**85 320,5** mlrd so'm, yoki **113,3 %**) va moliyaviy xizmatlar (**84 183,6** mlrd so'm, yoki **124,9 %**)ga to'g'ri keladi.



VII. Korxona va tashkilotlar soni

2026-yil 1-iyun holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **496,1** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **426,2** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (**111 808** ta), Toshkent (**48 873** ta), Samarqand (**43 079** ta), Farg'ona (**39 158** ta), Qashqadaryo (**32 189** ta), Buxoro (**30 129** ta) va Xorazm (**28 803** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **160 159** ta, sanoat sohasida – **62 044** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **38 399** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **32 739** ta hamda qurilish sohasida – **31 927** tani tashkil etdi.

2026-yil yanvar-may oylarida respublikada **37,6** mingta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **36,9** mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-iyun holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **19 921** tani tashkil etdi. Ularning **4 500** tasi qo'shma korxonalar va **15 421** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistika ma'lumotlarini tarqatish
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

